

"DEVONI LUG'OTI-TURK ASARIDA FE'L SÖZ TURKUMIGA OID SÖZLAR"TAHLILI

Rahmonjonova Guljahon

Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mahmud Qoshg'ariyning Devoni lug'oti-turk asarida qo'llanilgan fe'l s'z turkumiga oid s'zlar tahlili va undagi ma'nolar mulohazasi turkumidan bir tovush bilan farqlanadigan fe'llarning izohlari keltirib o'tiladi.

Kalit s'zlar: asardagi harakat fe'llari, fe'llarning orttirmalari va tuzilishlari, o'timli fe'l yasovchilar, x'rlanish ma'nosini bildirgan fe'llar, izoh, tahlil, tamoyil

Kirish

Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asari faqat lug'at, ya'ni s'zlarining arabcha izohli tarjimasidan iborat bo'lib qolmasdan, balki u arablargacha bo'lgan davrdagi adabiyot namunalarini o'zida jamlab kelgan ajoyib badiiy asar ham bo'lib hisoblanadi. Chunki unda xalq og'zaki ijodiga oid turli maqollar, hikmatli s'zlar, qo'shiqlar, iboralar, dostonlardan parchalar ko'plab keltirilgan. Sakkiz mingga yaqin turkcha s'zlarga arabcha izohlar berilgan. Muallifning: «Men bu kitobni maxsus alifbo tartibida hikmatli s'zlar, saj' (qofiyali nasr)lar, maqollar, rajaz (misralari nisbatan uzunroq bo'lgan she'r turi) vanasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim... Bu ishdamisol tariqasida turklarning tilida qo'llanib kelgan she'rlaridan, shodlik va motam kunlarida qo'llanadigan hikmatli s'zlardan, maqollardan keltirdim», – deyishi bejiz emas. Ko'pgina turkiy qabila va urug'larning tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va boshqa tomonlari haqida ma'lumotlar berilgan va ushbu jihatdan o'z davrining yirik asari darajasiga ko'tarilgan mazkur kitob jahon ilmi va madaniyati tarixida bu xildagi asarlarning dastlabki namunasi sifatida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki M.Koshg'ariy bu asarni yozishda juda katta material to'plagan hamda Markaziy Osiyo va G'arbiy Xitoy hududida istiqomat qilgan turkiy urug' va qabilalar tillarini qiyoslab o'rgangan. Uning uzoq vaqtlar yurtma-yurt kezib, to'plagan materiallari o'sha davr tilini har tomonlama yoritishga imkoniyat yaratdi va bu usul bilan barcha til faktlari asosida puxta ilmiy xulosalar chiqarishga asos bo'ldi.[1] «Devonu lug'otit turk» asari 1072-yilda yozila boshlangan. Ammo unga kirgan materiallar 15-20 yillar davomida to'plangan. Mahmud Koshg'ariyning o'zi: «Men turklar, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar, qirg'izlarning shaharlari, qishloq va yaylovlari ko'p yillar kezib chiqdim, lug'atlarini to'pladim, turli xil s'z xususiyatlarini o'rganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganligim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqni ham aniqlash uchun qildim. Bo'lmasa men tilda ularning yetuklaridan, eng katta mutaxassislaridan,

xushfahmlaridan, eski qabilalaridan, jangishlarida usta nayzadorlardan edim. Ularga shuncha diqqat qildimki, turklar, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar va qirg‘iz qabilalarining tillari butunlay dilimga jo bo‘ldi. Ularni har tomonlama puxta bir asosda tartibga soldim», – deb yozadi. «Devon» dagi har bir so‘z izohi, shu munosabat bilan keltirilgan afsona, rivoyat, maqol va she‘riy parchalardagi mazmunga, shaklga, ishoralarga daqiqnazarona qarab, xalqimiz o‘tmishiga daxldor tarixiy asarlar mag‘zini chaqish va shu asosda yangi-yangi tadqiqotlarni bajarish davr taqozosiga aylanmoqda.

Asosiy qism

Undagi fe‘llar tasnifiga töxtaladigan bölsak, fe‘llar ikki harfli, Uch, tört, besh, olti harfli böladi deyiladi asarda. Fe‘llarga söng orttiriladigan harflar öntadir: ا-a, ت-ta, ر-ra, س-sin, ق-qaf, ك-kaf, ل-lam, ن-nun, لا-lom-alif, ي-ya. Bularning har biri fe‘llarda biror qöshimcha ma‘noni orttirishga xizmat qiladi. Alif-“Xasad qildi” ma‘nosida kelgan tepzädi sözidagi alif kabı. Bu söz tepiz sözidan yasalgan. “Qöbuz chaldi” ma‘nosidagi qobzadi fe‘li ham qobuz söziga alif qöshish bilan yasalgan. ت-Ta harfi, tâ harfi ötimli fe‘l yasaydi. “Bug‘doy tozaladi” ma‘nosida keluvchi tariğ aritti jumlasidagi aritti fe‘li aridi özagiga ta qöshib, ötimli fe‘l yasagan sözga misoldir. Ton quritti (kiyimni quritdi) gapidagi quridi sözidagi ta ham shundaydir. ر-Ra, Köpincha ötimli fe‘l yasashda ra harfi ta harfi bilan birikib, tur shaklida keladi.

Chunonchi, bardı, barturdi, keldi (keldi), kelturdi (keltirdi) misollar kabı. Sin-س Fe‘llarga sin qöshilib, orzu va istak ma‘nolarini bildirdi, masalan: suw içsädi - suv ichmoq istadi; aş yeyisädi - osh yemoq istadi kabı. Sin harfi bazan arabcha تفاعل bobidagi kabi fe‘llarda boshqa shaxslarga nisbatan ishning bölganga öxshab köringanini, aslida u bölmaganligini bildirdi: ol mendin yarmaq alimsindi - u özini mendan tanga olgandek qilib körsatdi; ol meñä külümsindi - u özini menga kulib qaraganday qilib körsatdi. Sin-fe‘llarga qöshilib (arabcha mafa‘ala bobidagi kabi), ishda ikki kishi sherik ekanligini bildiradi: urdi, urusdi, turdi, turusdi kabı.

Fe‘llarga sin qöshilib bazan yordamlashish, bahslashish mazmunlarida ham qöllaniladi. Bu haqda öz joyida gapiriladi. ق-Qaf, fe‘llarga qöshilib yengilish, xörlanish ma‘nolarini bildiradi va maf‘ul örnida qöllaniladi. maf‘ul - sifatdosh shaklida qöllanuvchi söz hisoblanadi. er açiqdi - qamalgani, ayrilib qolgani uchun odam och qoldi; yilqi yutuqdi - yilqi xashaksizlikdan ölar holga keldi. Bu masalada köpincha qaf harfi sin bilan qöshilib qöllaniladi: er arsiqdi - kishi aldandı, er suysuqdi - kishining moli ög‘irlandi ma‘nosi kabi qöllanilganligini körishimiz mumkin. [2] Devoni lug‘otit turk” asarida boshqa holat fe‘llariga qaraganda ijro holati fe‘llari kam ekanligining guvohi bo‘lamiz. Devonda jami uchta ijro holati fe‘li misollar bilan keltirilgan. Shulardan ikkitasi o‘zaro sinonim. Jumladan kutdi, saqladi ma‘nosida közäzdi-fe‘li ifodalangan. Ол мәнә көзәзди—u narsani menga saqladi (asradi). Ол мәни көзәзди—u meni kutdi. Közäzdi-bu so‘z, asosan, “saqlamoq” va “kutmoq” ma‘nolarida qo‘llangan. Bu so‘zning asli köz өтті, ya‘ni yodida tutish uchun ko‘zini bir narsaga otdi,

tashladi demakdir. Boshqa bir tilda közätiri-kuzatdi ma'nosida ham qo'llangan[2.92]. Yana bir o'rinda esa күдүшди-fe'lini ham uchratishimiz mumkin. Bu so'z ham "kutmoq" ma'nosida kelgan va közäzdi-so'ziga sinonim bo'la olgan desak ham bo'ladi. Masalan, олар бир-бириг күдүшди –ularning har biri bir-birini, hamrohini kutishdi[2.100]. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da esa ushbu so'zlarning ma'nosi kengayib, turli xil shakllari keltirilgan:1. Mo'ljallangan narsa yoki shaxsning paydo bo'lishini, kelishini yoki uchrashini körish mumkin.XI asr obidasi bo'lmish "Devoni lug'otit turk" asari leksikasini tarixiy jihatdan o'rganish jarayonida yodgorlikda keltirilgan fe'l so'z turkumiga oid leksemalarning ko'pchiligi harakat fe'llari ekanligining guvohi bo'ldik. Shu o'rinda, devonda holat fe'llari ham o'rin olgan. O'zbek tilidagi holat fe'llari ob'ektiv asosiga ko'ra tabiat va jamiyatdagi, o'simliklar va hayvonot olamidagi, inson biologiyasi, fiziologiyasi va psixikasi bilan bog'liq muayyan jarayonlarni o'z ichiga oladi. Demak, holat fe'llari moddiy asosiga(ob'ektiga) ko'ra kengligi va murakkabligi, materiyaga xos turlicha holatlarni o'ziga "joylashtirishi" bilan boshqa semantik maydonga kiruvchi fe'l leksemalardan ajralib turadi.Holat fe'llari ma'nosida reallashuvchi holat muayyan logik sub'ekt doirasidagina sodir bo'lishi, undan tashqariga chiqmasligi, unda qolishi bilan xarakterlanadi.[3]

XI asr obidasi bo'lmish "Devoni lug'otit turk" asari leksikasini tarixiy jihatdan o'rganish jarayonida yodgorlikda keltirilgan fe'l so'z turkumiga oid leksemalarning ko'pchiligi harakat fe'llari ekanligining guvohi bo'ldik. Shu o'rinda, devonda holat fe'llari ham o'rin olgan. O'zbek tilidagi holat fe'llari ob'ektiv asosiga ko'ra tabiat va jamiyatdagi, o'simliklar va hayvonot olamidagi, inson biologiyasi, fiziologiyasi va psixikasi bilan bog'liq muayyan jarayonlarni o'z ichiga oladi. Demak, holat fe'llari moddiy asosiga(ob'ektiga) ko'ra kengligi va murakkabligi, materiyaga xos turlicha holatlarni o'ziga "joylashtirishi" bilan boshqa semantik maydonga kiruvchi fe'l leksemalardan ajralib turadi.Holat fe'llari ma'nosida reallashuvchi holat muayyan logik sub'ekt doirasidagina sodir bo'lishi, undan tashqariga chiqmasligi, unda qolishi bilan xarakterlanadi. Holat fe'llari holat ifodalaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda,Har bir so'z dastlab muayyan bir ma'noni ifodalaydi. Keyinchalik tarixiy taraqqiyot, fan texnikaning takomillashuvi, semantik ko'chish natijasida qo'shimcha yangi semalar kasb etib, iste'mol doirasi kengayib boradi. Binobarin, ko'p ma'nolilik til rivojida katta o'rin tutib, uning lug'at tarkibining boyishiga ulkan hissa qo'shadi. XI asrda bir so'z bir yoki ikki ma'noni anglatgan bo'lsa, hozirgi o'zbek adabiy tilida esa bu so'zlar o'z ma'nosidan tashqari ko'chma ma'nolarda ham qo'llanilayotganiga ham guvoh bo'lamiz. Asardagi fe'llar tasnifiga töxtalar ekanmiz har bir fe'ldagi öziga xos paronimlik bilan ma'no farqlash jarayonini körib ötishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qoshg'ariy M.Devoni lug'oti-turk .2-tom.1960.
2. Özbek tilining izohli lug'ati.2-tom.2007.
3. "Devoni lug'oti-turk"(turkiy sözlär devoni)/M.Koshg'ariy. - Toshkent: G'.G'ulom nashriyot - matbaa ijodiy uyi,2017.

